

Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi
NDPI Tarix Fakulteti 1-kurs magistranti

XVIII-XIX ASRLARNING 70-YILLARIDA QO‘QON XONLIGIDA MAORIF VA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII-XIX asrning 70-yillarida O‘rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligida ta‘lim: maktab va madrasalar faoliyati, ularning soni, ta‘lim berish usullari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, maktab, madrasa, mudarris, muarrix, Qur‘on ilmi, jug‘rofiya, handasa.

XIX asrning boshlarida Qo‘qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishi, rivojlanishida, xalqni ma‘rifatli qilish hamda mana‘viy hayotni yuksaltirishda ilm o‘choqlari hisoblanmish maktablar katta rol o‘ynagan. XIX asrda xonlikda mahalliy maktablar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi quyi maktablar bo‘lib masjidlarda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchisi yuqori maktablar bo‘lib faqat shaharlar va katta qishloqlarda faoliyat olib borgan. Ammo tadqiqotchilarning aksariyati faoliyatiga ko‘ra maktablarni xususiy, jamoat, qishloq va shahar maktablariga ajratishgan.

Odatda, boy xonadon vakillari o‘z farzandlarining ta‘lim olishi uchun xususiy maktablar tashkil etishgan va bunday xususiy maktablarda 4-5 nafar bola tahsil olgan.

Masjidlardagi maktablar esa masjidni qurdirgan shaxs tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, undagi xonalarda 10 tadan 30 tagacha bolalar tahsil olishi mumkin bo‘lgan. Ushbu maktablarda o‘qish 2-5 yil davom etib, darslar erta tongdan boshlangan. Bolalar soat 10-11lar atrofida uylariga nonushta qilishga borib kelib, yana kechgacha maktabda tahsil olishgan. Masalan, Buxoro, Qo‘qon, Toshkentning bir qator madrasalarida tahsil olgan muarrix Muhammad Solihxo‘janing o‘zi shaharning ziyolilari toifasidan bo‘lib, uzoq yillar o‘zi imomlik qilgan masjid qoshidagi maktab - Dabiristonda bolalarga ta‘lim berish bilan shug‘ullangan.¹ Uning maktabi dars beriladigan ta‘lim maskani bo‘lishi bilan bir qatorda birga tahsil olgan do‘stlari bilan ilm-ma‘rifat borasida bahslar uyushtiradigan hamda o‘sha zamonning ijtimoiy-siyosiy voqealarini muhokama qiladigan dargoh edi.

Qo‘qon xonligida maktablar ham qo‘shni xonliklardagi maktablar singari bir xil maqom va darajaga ega bo‘lgan. Xayr-ehsonlar hisobidan tashkil etilgan maktablar vaqf daromadlari bilan ta‘minlanib turilgan. Maktabga borish oilaning imkoniyat darajasi va bolaning qobiliyatidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Aksariyat bolalar 4-5 yoshdan o‘qishni o‘rganib, 6-8 yoshdan maktablarda tahsil olishni boshlashgan. Maktabda o‘qitishning aniq davomiyligi bo‘lmagan. U bolaning zehni va oiladagi muhitga bog‘liq bo‘lgan. Ko‘p holatlarda maktablardagi o‘quvchilarning soni 30 nafardan oshmagan. Ayrim holatlarda esa bu ko‘rsatgich 8 tani ham tashkil etgan.²

Qo‘qon xonligidagi maktablarda o‘g‘il va qiz bolalar alohida maktablarda tahsil olishgan, qiz bolalarning maktabida otinoyilar dars berishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining Farg‘ona viloyati boshqarmasiga tegishli 19-fondga saqlanayotgan Qo‘qon³, Andijon⁴, Namangan⁵ uyezdleri boshliqlarining Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga yuborgan musulmon maktablari to‘g‘risidagi ro‘yhatlarida 1888-yili uyezdlarda mavjud bo‘lgan madrasa va maktablar haqida ma‘lumot berilgan. Ushbu ma‘lumotlarga ko‘ra, poytaxt Qo‘qonda maktablarning soni boshqa shaharlarga nisbatan ko‘proq bo‘lgan. Ro‘yhatga ko‘ra Qo‘qon shahri va uyezdida 51 madrasa 260 ta maktab faoliyat ko‘rsatgan, ularning aksariyati 1876-yilga qadar faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, ro‘yhatda 260 ta maktab hamda unda dars beruvchi 262 nafar

¹ Sultonov. O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari -Toshkent : O‘zbekiston, 2009. – B.2

² Alixojiyev Muhammadjon “Qo‘qon xonligi madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni” tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasi-,2012. 55-bet

³ Qarang: ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12554-иш, 4 – 27-варақлар.

⁴ Qarang: ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12557-иш, 29 – 47-варақлар.

⁵ Qarang:ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12206-иш, 145 – 160-варақлар

muallim va 3096 nafar o‘quvchi ta’lim olgani qayd etilgan. Ammo, birorta ham maktabning tashkil etilgan yili to‘g‘risida aniq ma’lumot keltirilmagan.

Odatda, maktablarda asosan o‘qish va yozish arifmetika va adabiyot o‘qitilardi. Qorixonalarda esa asosan ko‘zi ojizlar bo‘lib, Qur‘on, doston, she‘r va g‘azallar yodlar edilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, xonlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham ta’lim olish uchun sharoitlar yaratilgan.

Qo‘qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o‘qigan. Bu madrasani ikkita bosh mudarris boshqargan: Eshon Mavloniy va Mahzumiyy Buxoriy. Bular o‘z davrlarida alohida hurmatga ega bo‘lganlar va kuchli bilim sohibi bo‘lishgan. Madrasalar xonlikning boshqa shaharlarida ham bor edi, biroq ular Qo‘qondagidek katta va salobatli emas edi. Madrasani tugatganlarning ayrimlari o‘z xohishlari bilan bilimlarini takomillashtirish maqsadida Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o‘qiganlar. Har bir domlanning o‘ziga xos dars berish uslubi bo‘lgan. Masalan, ba‘zilar bolalarning yoshini hisobga olib dastlab bolalarga husniyat va og‘zaki hisob-kitobni o‘rgatgan bo‘lsalar, katta yoshdagi o‘quvchilarda Qur‘onning oyat va suralaridan tashqari arab, fors, turk tillaridagi bitilgan hayotiy kitoblarni o‘rgatishgan. Ushbu kitoblar bolalarga Odobnoma dasturlari asosida tahsil berishgan, xalq og‘zida yurgan rivoyatlar, axloqiy, ma‘naviy, falsafiy ruhdagi maqollar, hikoyalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanishgan.

Madrasalarda o‘quv dasturlari asosan uch bosqichda ya‘ni boshlang‘ich, o‘rta va yuqori bosqichda olib borilib, arab, fors, turk tillari mukammal o‘rgatilgan. Bulardan tashqari Qur‘on ilmi (tavsif, o‘qish uslublari, qiroat), fiqh, shariat qonunlari, xandasa, ilmi nujum, jug‘rofiya, tarix, tabobat fanlari o‘qitilgan. Ushbu dargohdagi talabalar arab va fors tillari orqali Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Sadiy Sheroziy devoni, Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, Alisher Navoiyning “Chor devoni”, Fuzuliy g‘azallari kabilardan darslik va qo‘llanma sifatida foydalanib kelganlar.⁶

Madrasaga kelgan talabalar chuqur bilimga ega bo‘lishlari, ushbu maskanda ham diniy, ham ilmiy va madaniy fanlar bo‘yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo‘lganligi uchun Turkistonga turli mamlakatlardan ko‘plab talabalar kelib o‘qiganlar.⁷

Qo‘qon xonligi madrasalarining o‘ziga xos tomoni shuki, Qo‘qon xonlikning poytaxti bo‘lganligi sababli, barpo etilgan madrasalar yirik, ulug‘vor, hashamatli va shunga yarasha vaqf mulklari ko‘p bo‘lgan. Bunday katta va ko‘p vaqfga ega bo‘lgan madrasalar asosan, xon va uning yaqin qarindoshlari, badavlat mulkdorlar tomonidan qurdirilgan va ularga katta miqdorda vaqf mulklari ehson qilingan. Ushbu mulklar madrasalarning asosiy moddiy bazasi edi. Chunki vaqf mulklari daromadidan mudarrislar va boshqa xizmatchilarga maosh, mullalarga nafaqa berilgan, madrasa binosi ta‘mirlangan va boshqa xarajatlar qoplangan. Vaqf mulklari ko‘p bo‘lgan madrasalarda darslar sifati ham yuqori bo‘lgan.

Qo‘qon madrasalarida malakali mudarrislar dars berishgan. Shuning uchun ham Andijon, O‘sh, Marg‘ilon, Namangan madrasalarini bitirgan mullalar Qo‘qon madrasalarida qayta o‘qib malaka oshirganlar. Qo‘qon madrasalari xonlik madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu ilm dargohlarida diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan. Madrasalarni tugatgan bilimdon mutaxassislar xonlik tashkilotlarida ish yurituvchi, mirza lavozimlarida, masjidlarda imom, mudarris bo‘lib xizmat qilgan. Madrasalar talabalaridan olimlar, shoirlar, mudarrislar yetishib chiqqan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maskanlar xonlik jamiyati taraqqiyotida, madaniy hayotining rivojida muhim rol o‘ynagan. Maktab va madrasalarda tahsil olish orqali aholi ilmi bo‘lgan va jamiyatda o‘z o‘rnini topa olgan, turli mansablarda faoliyat olib borgan. Bundan tashqari ilmi bo‘lish kelajak avlodni tarbiyalashda, ularni bilimli bo‘lib yetishishlarida muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sultonov. O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari -Toshkent : O‘zbekiston, 2009. – B.2

⁶ Xaydarbek Bobobekov. “Qo‘qon tarixi”, - Toshkent: Fan-1996, B-146

⁷ J. Yo‘ldoshev, S. Xasanov “Jadid tarbiyashunosligi asoslari” Toshkent: - 1994, 5-6 betlar



2. Alixojiyev Muhammadjon “Qo‘qon xonligi madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni” tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasi-,2012. 55-bet.
3. Qarang: ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12554-иш, 4 – 27-варақлар.
4. Qarang: ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12557-иш, 29 – 47-варақлар.
5. Qarang: ЎзР МДА. И.19-фонд, 1-рўйхат, 12206-иш, 145 – 160-варақлар.
6. Xaydarbek Bobobekov .“Qo‘qon tarixi “,- Toshkent: Fan-1996,B-146
7. J.Yo‘ldoshev, S.Xasanov “Jadid tarbiyashunosligi asoslari” Toshkent:- 1994, 5-6 betlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaydarbek Bobobekov “Qo‘qon tarixi “ Toshkent: Fan -1996, B-146
2. J.Yo‘ldoshev, S.Xasanov “Jadid tarbiyashunosligi asoslari” Toshkent 1994, 5-6 betlar
3. Sulstonov. O‘. Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkent” asari – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B.2
4. Alixojiyev Muhammadjon “Qo‘qon xonligi madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni” tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasi-, 2012. 55-bet